

Shayx Alouddin Mansur (1952-2020)



Shayx Alouddin Mansur (1952-2020)



Shayx Alouddin Mansur, taniqli o'zbek ulamolaridan. 1952 yilda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatining Qorasuv shahrida tug'ilgan. Zamonasining atoqli olimlaridan tahsil olib, ilmini kamolga yetkazdi.

Olim Qur'oni karim ma'nolarining o'zbekcha izohli tarjimasini tayyorlashdek ulkan vazifani sharaf bilan ado etdi hamda uning tarjimai O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari boshqarmasi o'tkazgan tanlovda eng yaxshi deb topildi. Kitob 1991-1993 yillarda avval «Sharq yulduzi» jurnalida, keyin G'afur G'ulom va «Cho'lpon» nashriyotlarida bir million nusxada bosildi.

Shundan keyin u 2000 yilda Qorasuv shahrida «Qur'oni karimni o'rganish ilmiy markazi» tashkil etib, Qur'oni karim ma'nolarining rus (Alisher Ahmad bilan hamkorlikda) va qirg'iz tillariga tarjima qildi.

So'nggi yillarda u Qur'oni karimning imkoni boricha kengroq tafsirini tayyorlash ustida ish olib bordi. Qirg'izistonda shayxning ko'p jildli "Qur'oni azim tafsiri" chop etilgan.

Shayxning «Imom A'zam buyuk imomimiz» nomli asari O'zbekistonda chop etilgan.

2020 yil 13 oktyabr kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

2023-09-12 17:55:55